ISSN:3030-332X
Impact factor: 9,493
International journal of scientific researchers

KOMIL SINDAROVNING “QADR KECHASIDAGI QOTILLIK” ASARIDA KRIMINAL KONFLIKT VA IJTIMOIY MUHIT TASVIRI

Rahmonova Gulhayo Shodiyor qizi
Qarshi davlat universiteti magistranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.23300365

Annotatsiya. Ushbu maqolada Komil Sindarovning “Qadr kechasidagi qotillik” asarida kriminal konfliktning shakllanishi hamda uning vositasida ijtimoiy muhitning badiiy tasviri tahlil qilinadi. Asarda jinoyatni fosh etish jarayoni oddiy syujet hodisasi sifatida emas, balki jamiyatdagi turli muammolarni yuzaga chiqaruvchi vosita sifatida ko’rsatiladi. Qissada tergov qilish mobaynida jamiyatning turli sohalaridagi kamchilik va oqsoqliklar – huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatida kuzatilgan adolatsizliklar, qonun va inson o’rtasidagi munosabatlar, jamiyat uchun muhim sohalardagi mas’uliyat masalalari, iqtisodiy va moddiy muammolar kabi holatlar bayoni kuzatiladi.Bunda tergov jarayonlarining vazifasi shunchaki aybdorni topish emas, haqiqatni anglash va begunoh insonni aybdor qilib qo’ymaslik tamoyili muhim o’rin egallaydi. Shu jihatdan qissadagi kriminal konflikt jamiyatning turli tizimlaridagi muammolarni ko’rsatishga xizmat qiluvchi badiiy vosita sifatida talqin qilinadi.
Kalit so’zlar: Komil Sindarov, “Qadr kechasidagi qotillik”, detektiv janr, kriminal konflikt, jinoyat, adolat, tergov, inson taqdiri, sabab va oqibat, jamiyat, ijtimoiy muhit, qadriyat va illat.

Abstract. This article analyzes the formation of the criminal conflict in Komil Sindarov’s novella “The Murder on the Night of Qadr” and the artistic representation of the social environment through this conflict. In the work, the process of uncovering the crime is presented not merely as a plot event, but as an artistic means of revealing various social problems. During the investigation, shortcomings and problems in different spheres of society are highlighted, including injustices in the activities of law enforcement agencies, the relationship between law and the individual, issues of responsibility in socially important areas, as well as economic and material problems. In this context, the main purpose of the investigation is not simply to identify the perpetrator, but to establish the truth and prevent an innocent person from being wrongfully accused. From this perspective, the criminal conflict in the novella is interpreted as an important artistic device that serves to reveal problems existing within various social systems.
Keywords: Komil Sindarov, “The Murder on the Night of Qadr”, detective genre, criminal conflict, crime, justice, investigation, human fate, cause and effect, society, social environment, values and vices.

Аннотация. В статье анализируется формирование криминального конфликта в повести Комила Синдарова «Убийство в Ночь предопределения» и художественное изображение социальной среды посредством данного конфликта. В произведении процесс раскрытия преступления представлен не просто как сюжетное событие, а как художественное средство выявления различных социальных проблем. В ходе расследования раскрываются недостатки и проблемы, существующие в различных сферах общества, в том числе проявления несправедливости в деятельности правоохранительных органов, взаимоотношения закона и человека, вопросы ответственности в социально значимых сферах, а также экономические и материальные проблемы. При этом основной задачей расследования становится не только установление виновного, но и выявление истины, а также недопущение обвинения невиновного

человека. В этом аспекте криминальный конфликт в повести рассматривается как важное художественное средство, способствующее раскрытию проблем, существующих в различных общественных системах.

Ключевые слова: Комил Синдаров, «Убийство в Ночь предопределения», детективный жанр, криминальный конфликт, преступление, справедливость, расследование, судьба человека, причина и следствие, общество, социальная среда, ценности и пороки.

Yuridik fanlari doktori,O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi Komil Sindarov o'zining to'qqizinchi detektiv asarini "Qadr kechasidagi qotillik" deb nomlaydi va 2021-yilda nashr ettiradi. Qissani "Bundan oldin yozilgan asarlarning mantiqiy davomi va unda prokuratura tergovchilari va ichki ishlar xodimlarining jinoyatni fosh etishdagi kasbiy mahorati, mehnati, fidoiyligi tasvirlangan"[1] – deb ta'riflaydi muallif. Bundan tashqari asar voqealari XXI asrning birinchi o'n yilligida yuz bergan hayotiy voqealarga asoslanganini, lekin qahramonlarning ism familiyalari va joy nomlari o'zgartirilganini ta'kidlaydi. Shu bilan birga voqealarni ta'sirchan ifodalash maqsadida badiiy bo'yoq va adabiy fantaziyadan foydalanganini ham aytib o'tadi. Umuman "Sindarov asarlarining hayotiy tajriba va aniq faktlarga tayanishiga yozuvchi huquqshunos bo'lgani sababli jinoyat va tergov jarayonlarini soha ichidan bilishi asosiy sabab bo'la oladi"[2]. Muallif o'z faoliyatida kuzatgan turli sohalardagi muammo va kamchiliklarni, shaxsan o'zi guvoh bo'lgan ba'zi adolatsizliklar hamda ularning natijasida zarar ko'rgan insonlar taqdirini ro'y-rost tasvirlashga harakat qilgan desak mubolag'a bo'lmaydi.Yozuvchi jamiyatda insoniy qadryatlarning susayishi, mehr-oqibat, insof, diyonat, vijdon, sadoqat kabi tushunchalarning susayib borayotgani natijasida jamiyatning milliy-etiqodiy qiyofasiga putr yetkazilayotganidan qaysidir ma'noda o'ksinadi.Shu sababli asardagi obrazlar tilidan foydalanib bunday holatlarga haqiqiy fojea sifatida qarash kerakligini, oldi olinishi uchun jamiyat o'zini o'zgartirishga harakat qilishi kerakligini uqtiradi.Qissada bir jinoyatning siri fosh etilibgina qolmay,uning yordamida bir qancha adolatsizliklar, jinoyat va jamiyat orasida odatga aylangan mayda huquqbuzarliklar ham ochib beradi. Bu orqali yozuvchi yana bir xavfli illat bo'lgan "befarqlik"ning oqibatlarini anglatishga urinadi. Bundan tashqari, muallif asardagi har bir obraz va ularning harakatlari, fikrlari hamda xarakteridan shunchaki foydalanmaydi. Ularning har biri insondagi qaysidir fazilat yoki illatning ko'rinishi sifatida namoyon bo'ladi.Ijodkor o'zi ko'rsatishni istagan yuksak ma'naviyatli, kasbining fidoiysi, xalq dardini o'z dardidek ko'ruvchi jonkuyar insonlar bilan bir qatorda faqat shaxsiy manfaati uchun harakat qilib, shu yo'lda begunoh insonlarni ham jabrdiydaga aylantiradigan haqiqiy jinoyatchi kimsalarni ushbu asari qahramonlari qiyofasida gavdalantirgan bo'lishi mumkin.Bunday xulosaga kelishimizning sababi: obrazlar fikrlarining ochiq bayon etilgani, turli xarakterlarning ichki kechinmalari aniq tasvirlanganidir. Asarni o'quvchi kitobxon ham bugungi kun insoni sifatida atrofida shu kabi taqdir va xarakter egalari borligiga guvoh bo'lgan va ularning ruhiy holatini o'zi ham his qilgan bo'lishi mumkin albatta. Asardagi jinoyatning yuzaga kelishi faqat alohida shaxsning xatti-harakati bilan cheklanmaydi,balki insonning ma'naviy dunyosi,ijtimoiy munosabatlari va axloqiy qarashlari bilan ham uzviy bog'liq holda namoyon bo'ladi. Yozuvchi jinoyat hodisasi va uni aniqlash jarayoni orqali inson tabiatidagi murakkabliklarni, ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi ziddiyatlarni badiiy jihatdan yoritishga intiladi. Shu ma'noda asardagi

[1] Sindarov K. Qadr kechasidagi qotillik. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2021.

[2] Jo'raqulova M. Komiljon Sindorovning falsafiy dunyosi va detektiv asarlarida badiiy voqelik // Young Scientists' Conference. – 2025.

kriminal konflikt voqealar rivojini ta’minlovchi syijet vositasigina emas, balki inson va jamiyat munosabatlarini ochib beruvchi muhim badiiy omildir. Komil Sindarovning bu qissasini tahlil qilishda jinoyatning tashqi mexanizmi bilan uning ichki motivatsiyasini farqlash muhimdir. Jinoyatning qanday sodir etilgani voqealar zanjirini tashkil qilsa, uning ortidagi manfaat, ruhiy ziddiyat va xaloqiy tanlov masalalari inson ichki olamini anglash imkonini beradi. Biroq bunday xulosalar qahramonlarning asardagi aniq xatti-harakatlari bilan asoslanishi kerak. Qissaning nomidan ham o’ziga xos ziddiyat ufurib turadi. Masalan, “qadr kechasi” va “qotillik” tushunchalarini semantik jihatdan tahlil qiladigan bo’lsak – “qadr kechasi” milliy va diniy tafakkurda muqaddas, ezgu va tabarruk an’ana bilan bog’liqdir. Shu bilan birga “qotillik” tushunchasi esa gunohi azimlardan biri bo’lgan “inson hayotiga zomin bo’lish” ma’nosida keladi. Yozuvchi bunday qarama-qarshi tushunchalardan asarga nom tanlashda oqilona tarzda foydalangani ko’rinib turibdi. Fransuz adabiyotshunosi Jerar Jennet fikriga ko’ra – “Asar sarlavhasi o’z-o’zidan talqin kalitidir” [3].Demak biz asar tahlilini uning sarlavhasini chuqur anglasak qissaning asl mazmuninidan boxabar bo’lishimiz mumkin. Shunday qilib “Qadr kechasidagi qotillik” – qadriyatlar va jinoyat qarama-qarshiligi asosida qurilgan yaxlit syujet ekanligi ayon bo’ladi.

Qissaning syujeti detektiv asar talabiga muvofiq qadr kechasida sodir etilgan sirli qotillik bilan boshlanadi va voqealar rivoji uning aybdorini topish jarayonlari orqali rivojlantiriladi. Asar syujetining diqqatga sazovor tomoni shundaki, voqealar dastlabki gumonlar bilan cheklanib qolmaydi, balki yangi dalillar paydo bo‘lishi natijasida qayta baholanadi. Shu jihatdan qissa syujetini tahlil qilishda jinoyatning sodir etilishi bilan bir qatorda, unga nisbatan chiqarilgan xulosalarning ishonchliligiga ham e’tibor qaratish zarur. Buni keksa Illyos boboning o‘ldirilishi va uning turmush o‘rtog‘i Zebeniso momoning vafoti bilan bog‘liq voqealar misolida ko‘rish mumkin. Dastlab kampirning o‘limi erining fojiali vafotidan keyingi ruhiy iztirob bilan izohlanadi. Biroq marhumaning qizi Shahina onasining o‘limiga shubha bilan qarab, eksgumatsiya o‘tkazishni talab qiladi. Tekshiruv natijasida kampir organizmida simob moddasi mavjudligi aniqlanadi. Ushbu epizod syujetdagi muhim burilish bo‘lib, dastlabki xulosaning noto‘g‘ri bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi. Menimcha, mazkur voqeaning badiiy ahamiyati haqiqatning o‘z-o‘zidan ochilmasligi, uni aniqlash uchun shubhalarni tekshirish va mavjud dalillarga yangicha yondashish zarurligidadir. Qissadagi Xudoyor Azimov obrazi aybdorlik va aybsizlik masalasini ochishda alohida ahamiyatga ega. Qo‘shnilar bilan suhbat davomida uning marhum Illyos bobo bilan avvaldan kelishmovchiligi bo‘lgani, hatto unga tahdid qilgani ma’lum bo‘ladi. Bundan tashqari, Azimovning avtomobilidan qon izlari bor pichoq topiladi. Dastlab bu dalillar uning aybdorligini tasdiqlayotgandek ko‘rinadi. Biroq pichoqda barmoq izlarining aniqlanmagani, DNK tahlilining ham aniq natija bermagani va gumondorning qotillikni rad etishi tergovdagi shubhalarni kuchaytiradi. Ushbu holatda e’tibor berish lozim bo‘lgan jihat — dalillarning mavjudligi bilan aybning to‘liq isbotlanishi o‘rtasidagi farqdir. Xudoyor Azimovning marhum bilan nizolashgani va unga tahdid qilgani jiddiy gumon uchun asos bo‘lsa-da, bu holatlarning o‘zi qotillikni aynan u sodir etganini uzil-kesil tasdiqlamaydi. Shu sababli uning obrazini tahlil qilishda qahramonni shunchaki aybdor yoki aybsiz sifatida baholashdan ko‘ra, tergov jarayonida gumon va dalil o‘rtasidagi ziddiyat qanday yuzaga kelganiga e’tibor qaratish maqsadga muvofiq. Asarda tergovchi Xudoyberdi bilan Sanjarbek o‘rtasidagi suhbat ham mazkur muammoni chuqurroq ochadi. Rahbariyat ishni tezroq sudga oshirishni talab qilayotgan bir paytda Xudoyberdi Azimovning aybdorligiga nisbatan shubhalarini bildiradi. Sanjarbek esa uning taxminlarini tekshiradi, mavjud dalillarning ishonchliligiga doir savollar beradi. Suhbat

[3] Genette, Gérard. Paratexts: Thresholds of Interpretation. Trans. Jane E. Lewin. Cambridge: Cambridge University Press, 1997. P. 95.

davomida tergovchi o‘zining ichki ishonchi bilan cheklanib qolmasligi, fikrlarini dalillar bilan asoslash zarurligi ayon bo‘ladi.[3]Menimcha, ushbu epizodning muhim jihati shundaki, muallif tergovchining kasbiy mahoratini faqat jinoyatchini tez topish bilan o‘lchamaydi. Aksincha, tergovchining o‘z xulosasini qayta ko‘rib chiqishga tayyorligi, gumon ostidagi shaxsning aybdorligini tekshirish va muqobil taxminlarni o‘rganish qobiliyati ham uning kasbiy mas’uliyatini belgilaydi. Shu ma’noda, Sanjarbek va Xudoyberdi o‘rtasidagi muloqot asardagi detektiv ziddiyatni intellektual bahs darajasiga olib chiqadi. Qissada Shahina obrazining vazifasi ham syujet rivojida muhimdir. Uning onasi o‘limi sabablarini qayta tekshirishni talab qilishi voqealarning yangi yo‘nalishda davom etishiga turtki beradi. Bunda qahramonning shaxsiy qayg‘usi bilan haqiqatni aniqlashga bo‘lgan intilishi birlashadi. Agar Shahina onasining o‘limini tabiiy deb qabul qilganida, jinoyatning ikkinchi bosqichiga oid muhim dalil ochilmay qolishi mumkin edi. Demak, bu obrazni faqat marhumaning qizi sifatida emas, balki syujet rivojiga ta’sir ko‘rsatuvchi va haqiqatni izlash jarayonida muhim o‘rin tutuvchi qahramon sifatida baholash mumkin. Asarning g‘oyaviy mazmunini ochishda uning nomi ham alohida e’tiborga loyiq. Muallif so‘zboshida qotillikning Qadr kechasida sodir bo‘lganini ta’kidlar ekan, nom tanlashining ikkinchi sababini ham tushuntiradi: odamlar orasida qadr-qimmat, mehr-oqibat, insof, diyonat va sadoqat kabi tushunchalarning susayib borayotgani.[4] Ushbu izoh qissa nomini tasodifiy belgi sifatida emas, balki muallifning ijtimoiy-axloqiy qarashlarini ifodalovchi mazmuniy unsur sifatida o‘rganish imkonini beradi. Shunday qilib, qissadagi syujet rivoji va qahramonlar tizimi jinoyatni fosh etish jarayoni bilan cheklanmaydi. Illyos boboning o‘limi, Zebeniso momoning zaharlanishi, Xudoyor Azimovga nisbatan bildirilgan gumonlar, Shahinaning qat’iyati va Sanjarbekning tergovga yondashuvi orqali haqiqatni aniqlash, dalillarga xolis munosabatda bo‘lish va inson taqdiri uchun mas’uliyat kabi masalalar yoritiladi. Menimcha, asarning tanqidiy imkoniyati aynan shu jihatda — jinoyatning tashqi ko‘rinishi ortidagi murakkab munosabatlarni ochish va o‘quvchini dastlabki xulosalarni qayta ko‘rib chiqishga undashida namoyon bo‘ladi.

Asarning g‘oyaviy mazmunini ochishda uning nomi ham alohida e’tiborga loyiq. Muallif so‘zboshida qotillikning Qadr kechasida sodir bo‘lganini ta’kidlar ekan, nom tanlashining ikkinchi sababini ham tushuntiradi: odamlar orasida qadr-qimmat, mehr-oqibat, insof, diyonat va sadoqat kabi tushunchalarning susayib borayotgani.[4] Ushbu izoh qissa nomini tasodifiy belgi sifatida emas, balki muallifning ijtimoiy-axloqiy qarashlarini ifodalovchi mazmuniy unsur sifatida o‘rganish imkonini beradi. Qadr kechasi bilan bog‘liq muqaddaslik tushunchasi va qotillik o‘rtasidagi qarama-qarshilik insonning e’tiqodi, axloqiy mas’uliyati hamda amaliy xatti-harakatlari o‘rtasidagi munosabat haqida fikr yuritishga undaydi. Shunday qilib, qissadagi syujet rivoji va qahramonlar tizimi jinoyatni fosh etish jarayoni bilan cheklanmaydi. Illyos boboning o‘limi, Zebeniso momoning zaharlanishi, Xudoyor Azimovga nisbatan bildirilgan gumonlar, Shahinaning qat’iyati va Sanjarbekning tergovga yondashuvi orqali haqiqatni aniqlash, dalillarga xolis munosabatda bo‘lish va inson taqdiri uchun mas’uliyat kabi masalalar yoritiladi. Menimcha, asarning tanqidiy imkoniyati aynan shu jihatda — jinoyatning tashqi ko‘rinishi ortidagi murakkab munosabatlarni ochish va o‘quvchini dastlabki xulosalarni qayta ko‘rib chiqishga undashida namoyon bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sindarov, Komiljon. Qadr kechasidagi qotillik. — Toshkent: Yangi asr avlodi, 2021.
2. Genette, Gérard. Paratexts: Thresholds of Interpretation. Translated by Jane E. Lewin. — Cambridge: Cambridge University Press, 1997.
3. Jo‘raqulova, M. Badiiy adabiyotda detektiv va kriminal syujet (Nuriddin Ismoilov va Komiljon Sindorov asarlari misolida). — 2024.
4. Niyazov, R. T., Kurbanova, F. A. The Role of Komil Sindarov Not Only in Jurisprudence but Also in Literature // International Journal of Education, Social Science & Humanities. — 2023. — Vol. 11, No. 3. — P. 313–316.